

INTERNET INFORMATION MEDIA AND SPEECH CULTURE

Maxammadjonova Madina Dilmurod kizi

Master of Andijan State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetning paydo bo'lishi, uning inson hayotiga kirib kelish jarayoni va ijtimoiy tarmoqlarning nutq madaniyatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan qo'pol so'zlashuv, sheva elementlari, varvarizmlar va til me'yorlarining buzilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot saytlarida uchrayotgan grammatik va uslubiy xatolar misolida yozma nutq madaniyati muammolari yoritiladi. Maqolada nutq madaniyatini saqlash va internetda til me'yorlariga rioya etish zarurligi ta'kidlanadi.

Аннотация: В статье рассматривается история появления интернета и его влияние на культуру речи. Анализируются проблемы речевой культуры в социальных сетях, такие как употребление варваризмов, диалектных элементов и нарушение языковых норм. Приводятся примеры речевых ошибок на новостных сайтах. Отмечается необходимость сохранения языковых норм и повышения речевой культуры пользователей интернета.

Abstract: This article discusses the emergence of the Internet and its influence on speech culture. It analyzes linguistic issues observed in social networks, such as the use of barbarisms, dialectal words, and violations of literary norms. Examples of grammatical and stylistic mistakes on news sites are provided. The importance of preserving language norms and promoting proper speech culture on the Internet is emphasized.

Kalit so'zlar: internet, axborot vositalari, nutq madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, til me'yorlari, varvarizm, yozma nutq.

Ключевые слова: интернет, средства массовой информации, культура речи, социальные сети, языковые нормы, варваризмы, письменная речь.

Keywords: internet, media, speech culture, language norms, social networks, barbarisms, written speech.

Kirish. Internet tarixi 1950-yillarda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan boshlangan. 1969-yilda AQSH harbiy agentligi tomonidan birinchi marta tarmoq tizimi qo'llanilgan bo'lib, bu keyinchalik butun dunyoni qamrab olgan global internet tizimiga aylandi. 1980-yillardan boshlab internet keng ommaga tarqala boshladi va insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib bordi. Bugungi kunda internet orqali insonlar tezkor ma'lumot oladi, o'qiydi, aloqa qiladi, ijod qiladi. Ammo bu qulayliklar bilan birga, internet axborot vositalarining nutq madaniyatiga ta'siri masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda nutq me'yorlariga amal qilinmasligi, so'zlashuvdagi befarqlik va qo'pollik, chet tilidan kirib kelgan so'zlar nutq madaniyatining buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism.1. Internetning ijtimoiy hayotdagi o'rni

Internet insoniyat uchun ko‘plab qulayliklar yaratdi: tezkor aloqa, ma’lumot topish, bilim olish, tajriba almashish kabi imkoniyatlar uning eng muhim afzalliklari sanaladi. Shu bilan birga, internet tarmoqlari — TikTok, YouTube, Instagram, Facebook kabi platformalar jamiyatning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi va nutq madaniyatini shakllantirishda katta rol o‘ynamoqda.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati muammolari

Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab videolar, postlar, izohlar tahlil talab etadi. Ularning aksariyatida nutq madaniyatiga zid birliklar, beodob so‘zlar, sheva elementlari uchraydi. Masalan, “Akang kuchaydi, uje”, “Mazzami sizga mazzami”, “Uy bekasiman”, “Tugadi” kabi iboralar xalq orasida tez tarqalmoqda. Bunday so‘zlar nafaqat nutq madaniyatiga, balki yoshlarning tafakkuriga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

3. Axborot saytlarida nutq me’yorlarining buzilishi

Ommaviy axborot vositalarida ham grammatik xatolar uchrab turadi. Masalan, “Toshkent uchun 1000 nafardan ortiq yangi avtobus keltirildi” yoki “500 nafardan ko‘p jurnalistlar...” kabi iboralar tildagi miqdor me’yorlariga zid. Chunki “1000” yoki “500” aniq miqdorni bildiradi, ulardan keyin “-dan ortiq” yoki “-dan ko‘p” qo‘shimchasi ishlatilmasligi kerak.

4. Mashhurlarning nutqiy xatolari va ta’sir kuchi

Bugungi kunda mashhurlar, blogerlar va reklama roliklari orqali nutqiy beqarorlik yanada keng tarqalmoqda. Masalan, “Miobeauty” kompaniyasi reklamalarida “bugun sizlarga yuzdegi ajinlani zo‘r ketqazib beradigan kremmi obzor qibberaman” kabi jumlar til me’yorlariga mutlaqo mos emas. Shunga o‘xshash ifodalar millionlab ko‘rishlar orqali “trend”ga chiqib, adabiy til me’yorlarini buzmoqda.

5. Yozma nutqning og‘zaki nutqqa ta’siri

Internetdagi yozishmalar (chatlar, postlar, izohlar) orqali qisqartmalar, sheva unsurlari, emotikonlar va talaffuzga mos yozilgan so‘zlar kundalik nutqqa o‘tmoqda. Natijada, yozma nutqdagi xatoliklar og‘zaki so‘zlashuvda ham aks etmoqda. Bu holat tildagi madaniy me’yorlarning buzilishiga, jamiyat nutqiy saviasining pasayishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Internet hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, u nutq madaniyatiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda nutq me’yorlariga amal qilinmasligi, sheva unsurlarining ko‘payishi, begona so‘zlarning haddan ortiq ishlatilishi adabiy tilning sofliqiga xavf tug‘diradi.

Shuning uchun:

- internet foydalanuvchilari til me’yorlariga rioya qilishlari;
- axborot saytlarida tahririy nazorat kuchaytirilishi;
- blogerlar va kontent yaratuvchilar madaniy nutqni namuna sifatida targ‘ib etishlari zarur.

Nutq madaniyati — bu xalqning madaniy saviyasi, tafakkuri va ma'naviy darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Internetdan foydalanishda ham bu qadriyatni asrash barchamizning burchimizdir.

Reference

1. Karimov N. Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Habibullayeva D. OAVda nutq madaniyati va uning ijtimoiy vazifalari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
3. Vasilyeva A. N. Современный медиадискурс и его особенности. – Москва, 2018.
4. McQuail D. Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2010.
5. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
6. Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991.
7. Fairclough N. Media Discourse. – London: Arnold, 1995.
8. Fowler R. Language in the News. – London: Routledge, 1991.
9. O'zbekiston Respublikasi OAV to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent, 2022.
10. Shoazimov M. Ommaviy kommunikatsiya nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.